

Vatanimiz tinchligini ko'z qorachig'idek asrash nafaqat
armiyamizning, balki barchamizning muqaddas burchimizdir

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:3 (67168)
2018-yil 15-yanvar

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092



Yurtimizning har bir go'shasida, ta'lim-tarbiya maskanlarida 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan ko'plab tadbirlar o'tkazilmoqda. Ana shunday bayram tadbirlaridan biri yaqinda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi Qurolli Kuchlar muzeyida ham bo'lib o'tdi. «Uch avlod uchrashuvi» deb nomlangan anjumanda urush va mehnat faxriylari, «Nuroniy» jamg'armasi faollari, harbiylar, «Temurbeklar maktabi» kursantlari, kollej, litsey, umumta'lim maktabi o'quvchilari ishtirok etishdi.

(Davomi **2**-bet da)

YURTINGNI, ELINGNI QO'RIQLA HAR ON, SENGA ISHONAMIZ, JASUR, MARD O'G'LOK!



Bugungi ezgu ishlarimiz kelajak
avlod uchun xizmat qiladi.

5-bet

Vatanni himoya qilish –
O'zbekiston Respublikasi har
bir fuqarosining burchi.

OTALAR JASORATI FARZANDLARGA MEROS

Vatan himoyachilari kunini nishonlash va o'quvchilarga Qurolli Kuchlarimiz haqida atrofticha ma'lumot berishda Jizzax shahridagi 19-umumta'lim maktabi qoshidagi ARMning alohida o'rni bor.



17500 dan ziyod badiiy, ilmiy va siyosiy adabiyot hamda o'quv qo'llanmalarini o'zida jamlangan kutubxona xodimlari tomonidan o'tkazilayotgan uchrashuv va qiziqarli suhbatlar, filmlar namoyishi o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, shaharning Hamid Olimjon nomidagi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Xolmurod Hamroqulov, mehnat faxriylari To'loqin Bo'ronov, Saodat Ahrorqulova va Hanifa Yusupovalarning hayot yo'llari haqidagi hikoyalari e'tiborga molik.

Ana shunday tadbirlar natijasi o'laroq Manzura Muhammadiyeva, Luiza Ostanova va Nilufar Abdulhakimova kabi huquq bilimdonlari esa «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida faxrli o'rinni egallashdi. O'quv dargohida faoliyat yuritayotgan ingliz tili, biologiya, geografiya kabi yigimga yaqin to'garaklar qatorida tarix va huquq fanlari o'qituvchilari Aziza Olimova hamda Shahnoza Soatovalar rahbarligidagi «Yosh tarixchi», «Huquqshunoslik» to'garaklari faoliyati ham maqtashga arzigulik. Ushbu to'garaklarning Botir Abdullayev, Gulhajo Jumaboyeva, Saidkomil Saidakbarov kabi o'quvchilari 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab «Vatanni mard yigitlar qo'riqlaydi», «Otlar jasorati – farzandlarga meros», «Vatanimiz tarixini bilasanmi?» kabi mavzularda fotoko'rgazma, albom va bukletlar tayyorlashdi. Bu borada ARM rahbari Dildora Toshtemirova jonkuyarlik ko'rsatdi.

Abdulla SAIDOV

YURTINGNI, ELINGNI QO'RIQLA HAR ON, SENGA ISHONAMIZ, JASUR, MARD O'G'LONI!



(Davomi. Boshi 1-betda)

Qurolli Kuchlar muzeyi direktori M.Nuriddinov, O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash «Nuroniy» jamg'armasi Respublika boshqaruvi raisi Sh.Jalilov, O'zbekiston xalq artisti R.Ibrohimova so'zga chiqib, Milliy armiyamiz – mustaqilligimizning tinch va osuda hayotimizning mustahkam po'ydevori ekanligi haqida gapirdilar. O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir o'zining ona Vatani, Tinchlik mavzusidagi yangi she'rlaridan o'qib berdi. – Yurtimizga ko'z tegmasin, hayotimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin, – deydi poytaxtimizning Yunusobod tumanidan kelgan 84 yoshli otaxon Ahmadxon Xo'jaxonov. – Otam Abdullaxon Xo'jaxonov mohir tarjimon edilar. Men u kishining rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan «Gulliverning sayohatlari», «Baron Myunxauzen sarguzashtlari», «Dengiz sirlari», «Qiziqarli matematika», «Jonli matematika» kabi kitoblarini siz o'quvchilar uchun qayta nashr ettirdim.

– Bugungi tadbir menga juda yoqdi, – deydi 274- umumta'lim maktabining 5-«E» sinf o'quvchisi Saidkamol Saidrahimov. – Vatanni asl farzandlarga himoya qila oladi, deb ta'kidlandi ushbu tadbirida. Men ham katta bo'lsam, albatta, Vatanim ishonchini oqlayman.

Shuningdek, bayram tadbirida iste'fodagi podpolkovnik, shoir Iskandar Rahmonning harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi «Assalom, ulug' yurt, qutlug' Armiyam!», «Dilbandingman, Vatanim!», «Vatanga qasamyod onaga qasamyoddir» nomli kitoblarining taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Tadbir so'ngida Qurolli Kuchlar muzeyi va «Temurbeklar maktabi» kutubxonalariga kitoblar sovg'a qilindi.

Qurolli Kuchlar ansambli san'atkorlari hamda xushovoz xonandalar Hurriyat Isroilova, G'aybulla Qulabdullayev ijrosidagi sho'x kuy-qo'shiqlar bayramga o'zgacha fayz bag'ishladi.

Dilorom HOTAMOVA

2018-yil – Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili

ANA ITIRO-YU...

O'ziyurar robot, suvda suzuvchi orzular kemasi-yu osmonga parvoz qilib, videotasvirga oladigan xavfsiz dronlar insoniyatning hozirgi zamondagi eng so'nggi ixtirosi emas, albatta. Ayniqsa, buyumlarning 3D ko'rinishidagi tasvirlarini asli bilan farqlash murakkab bo'lib qoldi. Bunday buyumlarni yasash, yaratish insondan katta mas'uliyat, uquv va iqtidor talab qiladi. Bugun sizlarni ana shunday iqtidorli o'quvchilar bilan tanishtirishni lozim topdik:



Ilhomjon ADASHBOYEV Namanagan tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 8-«A» sinfida o'qiydi. Maktabdagi mashg'ulotlardan so'ng u tumandagi «Barkamol avlod» bolalar markaziga oshiqadi. Sababi, u yerda yangi modelni yasashni oxiriga yetkazishi kerakda. Ilhomjon, mana bir necha yildirki, markazning robototexnika to'garagiga qatnaydi. Ustozi Bahromjon Yusupov yordamida elektron o'yinchoqlardan o'zi harakatlanuvchi robotni yasashni qunt bilan o'rganmoqda. Hademay, ishini oxiriga yetkazgach, o'yinchoqni tengdoshlariga ko'rsatib, ularning ham olqishiga sazovor bo'lish niyatida.

Mana, aziz o'quvchilar! Ixtirochi va iqtidorli tengdoshlaringiz bilan yaqindan tanishib oldingiz. Bu maqolani o'qib, sizda ham biror yangi g'oya tug'ilgan bo'lsa, tortinmang. Uni ro'yogba chiqarish uchun chin dildan kirishing. Shunda siz ham kelgusida o'z ixtiroingiz bilan faxrlanib yurasiz.

Jahongir ALIMOV hamda Temur MUSURMONOV Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 12-Mehribonlik uyi negizida tashkil etilgan Do'stmurod aka Janayev rahbarlik

qilayotgan aviamodel to'garagi a'zolaridir. 7-sinfda tahsil olayotgan bu o'quvchilar ixtiro borasida tengdoshlaridan ancha o'zib ketishgan. Shuningdek, ularning tengdoshi 7-sinf o'quvchisi Jahongir Xoliyorov «Yosh ijodkor ixtirochilar Respublika sirtqi ko'rik-tanlovi»da 3-o'rinni egallagan. 5-sinf o'quvchisi Asadbek Ashuraliyevning avia-raketa yo'nalishida ixtiro qilgan modeli bilan ushbu tanlovda eng yuqori ballni qo'lga



kiritgan.

Kemasozlik yo'nalishi bo'yicha Ixtiyor Bo'ronovning qo'lga kiritgan yutuqlari ham chakkimas. U ham, mana bir necha yildirki, mazkur yo'nalishda qator yutuqlarga erishib kelmoqda.

Ozoda
TURSUNBOYEVA



YIL BOSHI – YO'L BOSHI

Qishki ta'til ajoyib o'tdi. E'tiborlisi, 2-chorakni a'loga yakunlagan va sport musobaqalarida faol ishtirok etgan o'quvchilar maktab rahbariyati tomonidan taqdirlandilar.

Men esa «Ibratli qizlar» ko'rik-tanlovida yaxshi natija ko'rsatib, belashuvning tuman bosqichiga yo'llanma oldim. Va, albatta, «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishni ham unutmadi. Zero, ushbu nashr sinfimiz, maktabimiz o'quvchilarining sevimli va qadrdon gazetasiga aylangan.

Go'zal REYIMBOYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanidagi
19-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

BIZ ENDI SAVODXONMIZ

Har bir oilada farzand dunyoga kelib, maktab yoshiga yetganda, ota-ona katta quvonch va hayajon bilan dilbandini maktab ostonasiga yetaklaydi. Bilim olib, xalq koriga yaraydigan ziyoli inson bo'lishini niyat qiladi.



Bu yilda maktabimizga 124 nafar o'quvchi 1-sinfga qabul qilindi. Bola-jonlar to'rt oy ichida qadrdon «Alifbe» kitobi yordamida savodini chiqardi. Bugun ular ravon o'qishni, husnixat bilan yozishni, hisoblashni o'rganib olishdi. «Alifbe» kitobini o'qib tugatdilar.

Yaqinda 1-«A» sinf o'quvchilari o'zlarining olgan bilimlari bilan otanalarini xushnud etishdi. Ona Vatan, kitob haqida qo'shiqlar kuylab, raqslar ijro etishdi.

Saida JUMANIYOZOVA,
Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi
1-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Insonning axloqi uning niyatlarida mujassam.

QISH MAVSUMINI ERTAKLAR BILAN...

Xadicha Xudoyorova poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 175-umumta'lim maktabining 3-«V» sinfida o'qiydi. U ikkinchi chorakni ham a'lo baholarga yakunladi.



Tengdoshingiz ustoz Umda Maqsudovaga juda havasi keldi. Kelajakda xuddi ular kabi o'qituvchi bo'lishni orzu qiladi. Buning uchun barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirish hamda juda ko'p ertak kitoblarni o'qish kerakligini yaxshi biladi. Har kuni kechki ovqatdan so'ng ukalari bilan «o'qituvchi-o'qituvchi» o'ynaydi. Uning «o'quvchi»lari olti yoshli Muhammadbiol, ikki yoshli Abdurahmon hamda yaqinda uch oylik bo'lgan Imonadir.

Bo'lajak «o'qituvchi» avval murabbiy Nozim Tursunqulovdan taekvando bo'yicha o'rgangan usullarini o'rgatishdan boshlaydi. Chunki jismoniy mashqlar bilan muntazam

shug'ullanish tanani chiniqtirib, aqlni peshlaydi.

«O'qituvchi» opa jajji o'quvchilariga bir-biridan qiziqarli ertaklar o'qib berishni kanda qilmaydi. Ayniqsa, ukalari «Oltin sochli malika»ni sevib tinglashadi. Nodirjon aka va Nigora opa bolajonlarga «Kichkina Yanko», «Uch xazina», «Yetti tilak» va «Qorasoch pari» kabi jahon xalqlari ertaklari to'plamini sovg'a qildi. Ana endi Xadicha qishni ukalari bilan birgalikda mazza qilib o'tkazishadi!

Nurbek QIDIRALIYEV

SINFDOHLAR BILAN MUHOKAMA QILING!

Har payshanba kuni birinchi soatda kimyo fani o'tiladi. Ilyos va uning sinfdoshlari ushbu darsni intizorlik bilan kutadi. Chunki jonkuyar ustoz Mahmuda opa bolalarni darsga qiziqtirishni juda yaxshi biladi.

PIYOLADAGI SUVMI YOKI...

Bir kuni ustoz o'quvchilarga «Dars so'nggida sizlarga bir yangiligim bor», dedi. Chiqish qo'ng'irog'i chalinganda sinfda hech kim joyidan qo'zg'almadi. Mahmuda opa xotirjam gap boshladi:

– O'zimning oppoq, beg'ubor, ko'kka bo'y cho'zayotgan atirgullarim, mening bu yangiligim sizlarni o'ylashga, o'z ustingizda ishlashga, xuddi ixtisoslashtirilgan fanlaringiz kabi kimyo faniga ham mehr berishingizni talab etadi. Qaysi sinf kuchli tayyorgarlik ko'rsa, bellashuvda g'olib bo'ladi.

Ustoz gaplarini tugatmasdan bir o'quvchi:

– Bellashuv?! Kimyo fanidan bellashuv bo'ladimi? – dedi quvonchi ichiga sig'may.

– Ha... – dedi ustoz jiddiy ohangda va so'zida davom

etdi:

– Tanlov 6 ta shart bo'yicha o'tkaziladi. Maktabimizdagi eng faol 4 ta sinf tanlab olindi. Ular orasida sizning sinfingiz ham bor.

Ilyosning guruhi tayyorgarlikni o'sha kundanoq boshlab yuborishdi. Ko'z ochib yumguncha orziqib kutilgan kun ham yetib keldi.

Sahna to'rida hakamlar hay'ati sifatida biologiya, algebra va, albatta, kimyo ustozlari o'tiribdi. Bellashuv 9-«A», «B», «V», «G» sinflari o'rtasida bo'lib o'tadi. Tanlov boshlandi. 1-shartdan 5-shartgacha 9-«A» va Ilyosning 9-«V» sinfidan tashkil topgan guruh o'quvchilari eng yuqori – 5 ball bilan baholandi. Va nihoyat, ishtirokchilar 6-shartga ham yetib kelishdi. Ular bu bosqichda kimyoga oid sahna ko'rinishini

namoyish etishmoqchi. Ilyos o'quvchi rovida, bo'ylari baland, jiddiy, bir qarasangiz o'qituvchilarga ham o'xshab ketadigan Zarina esa ustoz rovida sahnaga chiqishi rejalangan. Ular tayyorlagan kichik sahna ko'rinishida piyoladagi suv o'quvchi tomonidan yerga sepib yuborilishi kerak edi. Bolalar esa piyola va suvni unutishgandi. To'satdan Ilyosning xayoliga laboratoriya xonasidagi shisha kolbalarda suv turishi keldi. U tezda xonaga kirib, kolbalardan biridagi suyuqlikdan piyolasiga o'zgina quydi-da, do'sti yoniga oshiqdi.

Sahna ko'rinishi namoyish etilayotgan bir paytda o'qituvchi rolini talqin qilayotgan Zarina birdan g'alati ahvolga tushib, sahnadan tashqariga o'tildi. Zalda o'tirganlar bu holatdan hayron bo'lishdi. Tadbir tugagach, ko'pchilik Zarina rolini yaxshi ijro eta olmadi, deb o'ylab undan xafa

bo'lishdi. Lekin u piyoladagi suyuqlik qo'lga sachraganini va o'sha paytda achishish tufayli rolidagi so'zlarni aralashtirib yuborganini aytdi. Bu gaplar kimyo fani ustozining

cho'za ko'rmanglar. Chunki tajriba uchun mo'ljallangan narsalardan noo'rin foydalanish yomon



qulog'iga yetib, hammasidan xabar topdi. Surishtirib bilgach, piyoladagi suv emas, balki kislotaning ekanligi ma'lum bo'ldi. Shunda Mahmuda opa barcha sinf o'quvchilariga: – Bolalar, men sizlarga avval ham aytganman, yana bir bor aytaman, kimyo xonasidagi hech bir anjomga mening ruxsatimsiz qo'l

oqibatlariga olib kelishi mumkin, – dedi.

Bellashuv yakunida 9-«A» g'oliblikni qo'lga kiritdi. Ilyosning guruhi esa e'tiborsizlik tufayli 2-o'rin bilan cheklandi.

E'zoza MUHAMMEDOVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi Respublika dizayn kolleji 1- bosqich o'quvchisi

Quvnoq o'tar har onimiz,
«G'uncha» bizning mehmonimiz!

Tong
yulduzi

G'UNCHA OY 60 YOSHDA



Yillar yillarga qo'l tutadi. Orzular ham ulg'ayadi. Bolalikning o'ylari – xayollari har soniya hamroh bo'ladi – jimjilloqlarini birlashtirib do'st tutinadi:

– Qilichmi, to'qmoq? – deydi.

– Qilich!

– Qirq yilgacha o'rtoqmiz endi.

To'qmoq! Bu yurak bilan yurakni choklovchi so'zga aylanadi.

To'qson yilgacha qadrdonimiz, birodar, endi.

Kechagina o'quvchilari bilan shunday inoqlashgan G'unchaoy bugun 60 ga to'ldi. Ota-onamiz bu jajji kitobni bizga sovg'a qilganlarida, qanchalar sevingan edik. Ertak tinglab, she'r yodlab, topishmoq topganimizda, dunyo faqat o'zimiznikiga aylanardi-

qolardi. Kun kelib biz ham qo'limizga qog'oz-u qalam olib, «G'uncha»ga maktub bitdik. Undan javob olganimizda nafaqat sinfimiz, butun maktab bizga havas qilgandi. Quvonchimiz yer bilan osmonning chegarasini unutdirgandi. Do'st bo'lishni o'rgatdi

o'ynaymiz.

Jurnalning o'quvchilari bugun salkam 150 ming! Jurnal shuncha xonadonning qadrdoni, ustoziga

60 yilki maktublarni saralashdan zavq oladi. Har bir yo'llangan izhor ortida katta qalb kamol topayotganini his qiladi. Yozishmalar unga kuch beradi –

qog'oz qushchalar qo'nishi bilan uning yelkalariga javobi ilinib, parvozga hozirlanadi.

Oltmish yilki, «G'uncha»ning har bir kuni shunday. U jajji quyoshga o'xshaydi. Kirib borgan har manzilini nurga to'ldiradi.

Dilfuza SHOMALIKOVA,
«G'uncha» jurnali
Bosh muharriri

JAJJI QUYOSH NURI

u! So'z bilan sirlashishni quloqlarimizga pichirladi. Tinglash ilmining naqadar ziyodaligidan boxabar etdi. O'g'itlarni qulog'imizga quydik. Yillar o'tdi. Keyin biz uni farzandlarimizga hadya qildik. Bugun esa nabiralarmiz bilan birga «Topgan topaloq»

aylangan. U kabutardek qanotlarida «She'rmunchoq», «Qog'ozdagi kamalak», «Oltin ko'prik», «Zumrad ertaklar»-u «Bisot»larni o'quvchilari huzuriga eltadi. Jurnalxonlarning diilnomalari qog'oz qushlarga aylanib, tahririyat qutisiga tushadi. G'unchaoy

Anvar OBIDION:
O'zbekiston xalq shoiri

BIRINCHI USTOZIM

Yangi tashkil topgan «G'uncha» jurnalining birinchi sonini o'z qo'limda ushlab, boshdan oxirigacha o'qib chiqqan, jozibali, rangli suratlarini qayta-qayta tomosha qilganlardan bittasi menman. O'shanda 11 yashar bola edim.



She'r tinglashni hali maktabga bormasdan yaxshi ko'rardim. Savodim chiqqa boshlagach, ba'zan o'zimcha she'r bitishga urinib yurgan chog'larim edi. Jurnalda taniqli shoirlardan tashqari ustiga falon maktabning falon sinf o'quvchisi, deb

yozilgan she'rlarni ko'rib, ulardan yaxshirog'ini to'qiy olaman, deya ichimda havolanganim kechagidek esimda...

Shu-shu kunora she'rlar yozib, hali siyohi qurimasdan, «G'uncha»ga jo'nataverdim.

Jurnal xodimi, bolalarning sevimli shoiri Miraziz A'zam she'rlarimdagi kamchiliklarni aytib, yo'l-yo'riqlar ko'rsatib borishdan erinmasdi. Tirishqoqligim oxiri samara berdi. Oradan besh yilcha vaqt o'tib, «Shkafcha» degan birinchi she'rim chop etildi. Shundan kelib chiqib, «G'uncha» jurnali va jurnalning sobiq xodimi – Miraziz A'zamni birinchi ustoz deb atayman hamon.

«G'uncha» jurnalining ilk nashrlarini menga dadam sovg'a qilgan edi. Hozirgi bolalarning ota-onalari ham dadamga o'xshashlarini juda-juda istab qolaman.

To'ying qutlug' bo'lsin, jonajon «G'uncha»m!

BIZNING QADRONIMIZ

Bilimimiz oshirib,
Fikrimizni etar boy.
Oltmish dovon oshibdi,
Jurnalimiz G'unchaoy.

Ertak, matal, topishmoq,
Hikoya, she'r saralar.
Tengqurlaridan ibrat,
Olsin, deydi bolalar.

Bizning qadrdon «G'uncha»,
Yuz yoshda ham yashnasin.
Kichkintoylar qalbidan,
O'r in olib, yashasin!

Dilfuza KAMOLJONOVA

SINFIMIZ KUTUBXONASIDA...

Maktabimizda sinf kutubxonasi tashkil etganmiz. Nomi «Sehri olam» deb atadik. Unda «G'uncha» uchun alohida joy ajratilgan. Biz bu yerda jurnalning har bir sonini yig'ib boramiz. Bu yil sinfdan tashqari o'zim va ukalarim uchun ham alohida obuna bo'ldim. Aytmoqchi, tahririyat xodimlarini jurnalning 60 yoshi bilan tabriklayman. Navbatdagi sonlarning qo'limizga tezroq yetib kelishini kutib qolamiz.

Diyoza KARIMOVA,
Surxondaryo viloyati, Boysun
tumanidagi 4-umumta'lim
maktabining 4-sinf
o'quvchisi



G'UNCHA OYGA TILAGIM

G'unchaoy-la ikkimiz,
Bir yilda tug'ulibmiz.
O'ylanib qoldim birpas,
Unga qilyapman havas.
Bo'lsak ham bizlar tengdosh,
Men qariman, u-chi, yosh.
Oltmish yil bo'yi har oy,
Bolalarga G'unchaoy,
Sovg'a bo'lib boradi,
Shundan ko'p zavq oladi.
Hormay-tolmay ishlaydi,
Aqlarni peshlaydi.
Bilimlar uzatadi,
Nuqsonni tuzatadi.
Yonida unga damon,
Temirjon, No'xotpolvon.
Bir-biri bilan inoq,
Muxlislariga hamroh.
G'unchaoyga tilagim:
Bolalarga keragin,
Har on, har lahza sezsin,
Butun dunyoni kezsini.
Olamda topsin e'zoz,
Va e'tirof beqiyos.

Kavsar TURDIYEVA

TA'LIM VA TARBIYA FIDOYISI

Ayol - ona, Ayol - tarbiyachi, Ayol - o'qituvchi, shifokor, muhandis, Ayol - tadbirkor, fermer... Bir so'z bilan aytganda, Ayol - buyuk zot! Mana shunday ulug' nomga munosib insonlar oramizda ko'plab topiladi.

U - jonkuyar, ijodkor pedagog, samimiy va kamtar. Vataniga, el-u yurtiga, ma'naviy hayotimizga, mamlakatimizning yorug' kelajagi uchun bor kuch-g'ayratini, bilimni safarbar etib kelayotgan zahmatkash insonlardan biri Farg'ona viloyati, O'zbekiston tuman xalq ta'limi bo'limi o'quv ishlab chiqarish

yalash ishlarida o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

Ustoz «Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishning yangi tahrirdagi me'yoriy hujjatlarni yuritish» mavzusida viloyat seminarini tashkil etib, tumanda olib borilgan ishlari viloyat miqyosida ommalashtirilgan. «Kelajaging o'z qo'lingda», «Buyuk maqsadlar sari birlashaylik», «Sog'lom bola ahil va sog'lom oilaning mevasidir» mavzusida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar shular jumlasidandir.

R. Ahmedovanning «Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash», «Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida o'yinlarning ahamiyati», «Sog'lom avlodni shakllantirishda psixologik omillar» mavzusidagi uslubiy qo'llanmasi va 30 dan ziyod tavsiyasi «Maktabgacha ta'lim» jurnalida chop etilgan.

Respublika xalq ta'limi vazirligining «Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda innovatsion usul va metodlardan foydalanish» mavzusida o'tkazilgan Respublika seminarida faol ishtirok etganligi uchun diplom bilan taqdirlangan.

Ra'noxon Ahmedova «Yilning eng yaxshi metodisti - 2010» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi g'olibi.

Farg'ona viloyati hokimligi va YUNISEF Xalqaro tashkiloti bilan hamkorlikda «Bolalar farovonligini ta'minlash borasida hududiy dasturlarini ishlab chiqish» mavzusida viloyat miqyosida o'tkazilgan seminar-treningda uning Dasturi yuqori baholanib, YUNISEF Xalqaro tashkiloti tomonidan sertifikat bilan taqdirlandi.

34 yillik mehnat tajribasiga ega ustoz «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tatbiq etish, dars jarayoniga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ta'lim muassasalarida psixologik xizmat va ilg'or tajribalarni o'rganish va tahlil etish, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, yuksak ma'naviyatli kelajak avlodni tarbi-



sho'ba rahbari Ra'noxon Ahmedovadir. Jonkuyar pedagog «Yil ayoli» tanlovining respublika bosqichida faxrli o'rinni egalladi.

Bolalarni komil inson bo'lib shakllanishida o'zining bilim-malakasini qo'llab, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni muntazam tashkil etish, o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish borasida samarali faoliyat yuritib kelayotgan ilg'or pedagogning mehnati rag'batlantirilib, «O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni hamda «O'zbekiston mustaqilligiga 25 yil» esdalik ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

34 yillik mehnat tajribasiga ega ustoz «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tatbiq etish, dars jarayoniga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ta'lim muassasalarida psixologik xizmat va ilg'or tajribalarni o'rganish va tahlil etish, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, yuksak ma'naviyatli kelajak avlodni tarbi-

F. ABDUSAMAD qizi

With the new day comes new strength and new thoughts.
(Yangi kun yangi imkoniyatlar va yangi fikrlar bilan boshlanadi).


Lesson 3

PROVERBS ABOUT MOTHERLAND

Dear children, continue the proverbs (Bolajonlar, maqollarni davom ettiring)

1	There is no place ...	A	in family heath.
2	For each man his native land...	B	without forest.
3	Love to Motherland infused...	C	like home.
4	Person without Motherland is a nightingale...	D	than a sultan in a foreign land.
5	Better be an ordinary man in one's land...	E	to bury oneself alive.
6	To betray one's Motherland is...	F	is paradise!

- 1-C,
- 2-...
- 3-...
- 4-...
- 5-...
- 6-...



How to be more polite

Children, read the sentence and use them in your speech.

Don't say	Say
Send me a report.	Could you send me the report.
Leave me alone.	Could you give me a minute?
Tell when you're available.	Let me know when you're available.
You are wrong.	I think you might be mistaken.
Your work is bad.	I'm not quite satisfied with this work.
I don't like the colors in this picture.	I'm not too fond of the colors in this picture.

WORD GAME

Match the duties with the correct people

To help sick people, to protect people's life, to teach English, to take care of our teeth, to drive a bus, to put out fires.




1. My brother is a fireman. He puts out fires.
2. My sister is a teacher. She _____
3. My uncle is a dentist. He _____
4. Uncle Dilshod is a bus driver. He _____
5. My mother and my aunt Salima are doctor and nurse. They _____
6. When I grow up, I want to be a policeman. I want to _____

Donora ABDULLAJONOVA

SO'Z YO'LIDA YUGURGAN ODAM

«Vatan himoyachilari kuni»-da tug'ilish katta baxt. U tabaruk kunda tug'ilgan kishilarning nigohidan «Men Vatanimni himoya qilish uchun dunyoga kelganman», degan tuyg'uni his qilgandek bo'lamiz.

Yusuf Abdullayev! Bu nom siz aziz o'quvchilar uchun qadrdon ism. «Tong yulduzi» gazetasida uzoq yillar faoliyat yuritib, o'zining ibratomuz hikoyalari bilan o'quvchi qalbidan joy olgan suyuqlik ijdokor. «Lafz» nomli kitobning muallifi hamdir. Yusuf akingning o'ziga xos ibratli sokin dunyosi bor. U o'z kasbining jonkuyari,



mas'uliyatni yurakdan his qiladigan odam. Yusuf aka hamisha odamlarga yaxshilik qilishga oshiqadi. Soatlab asarlarni hijjalab o'qishdan tolmaydi, u o'qib chiqqach, xotirjam bo'lamiz, chunki xato ketmaydi.

Bugun Yusuf aka «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida faoliyat yuritaypti. Ayni damda ellik beshinchi qishni qarshi olgan bobogiz hayotdan olgan ibratli voqealarni jamlab, kitob yaratish payida yuribdi. Biz ham tinib-tinchimaydigan ijodkor hamkasbimizni samimiy qutlab, Vatanni sevish zavqi hech qachon qalbingizni tark etmasin, degimiz keldi.

«Tong yulduzi» jamoasi

Kechki ovqat mahali bo'lganiga qaramay, Jamshidning otasidan darak yo'q. Onasiga qo'shilib ikki bor katta ko'chaga qarab keldi. Birinchi sinfda o'qiyotgan opasi xonasida dars qilayotgandi. Uning oldiga kirib rangli qalamlarini tomosha qilmoqchi edi, xalaqit berma, deb yaqinlashishga qo'ymadi. Nima qilarni bilmay turganida oshxonadan onasining ovozi keldi:

– Bolalar, qo'linglarni yuvinglar, dandang keldilar.

Yo'lak zinasidan otasi kim bilandir gaplashganicha ikkinchi qavatga ko'tarilib kelardi.

– Uyga kiring, bir piyoladan choy ichamiz, – dedi otasi eshikni ocharkan.

– Rahmat, boshqa safar. Tezroq uyga chiqay, biznikilar ham xavotir olib o'tirishgandir.

Baraka toping, qo'shni, katta yaxshilik qildingiz.

Otasi bilan birga yo'lakka tashqaridan muzdek havo kirdi. Telpagi ho'l bo'lib ketibdi. Qo'lidagi narsalarini onasiga uzatarkan, avval Zilolaning, keyin Jamshidning peshonasidan o'pib qo'ydi.

– Ko'cha biram sovuq, shamol ko'z ochirgani qo'ymayapti, – dedi ustidagilarni yecharkan. – Tepadagi qo'shning mashinasi yo'lda buzilib qolibdi. Rosa urinib ham yurgizolmadik. Oxiri mashinani tortib keldik. Shunga sal kechikdim. Boyaqish muzlab qolay debdi. Katta yaxshilik qildingiz, deb qayta-qayta duo qildi. Nimagadir o'zimniyam ko'nglim yorishdi.

Otasidagi xush kayfiyat hammaga yuqdi. Mazza qilib ovqatlanishdi. Jamshidning esa otasiga juda-juda havasi keldi. Uning ham odamlarga yaxshilik qilgisi kelardi.

– Dada, men ham yaxshilik qilgim kelyapti, – dedi otasiga yaqinroq surilarkan. – Nima qilay?

Otasi kulib o'g'lining boshini siladi.

– Katta bo'lib maktabga borsang, yaxshi o'qisang, o'shanda hammaga yaxshilik qiladigan bo'lasan. Ertaga onang bilan buvingni ko'rishga borasizlar. Buyam yaxshilik.

Otasining gapidan Jamshid xursand bo'ldi. U ertadan boshlab yaxshilikni boshlaydi. O'sha kuni uning sira uyquasi kelmadi.



YAXSHILIK IZLAGAN BOLA

(Hikoya)

tashlagan pista po'chog'ini og'ziga olar, hech narsa yo'qligidan qaytarib tashlardi. Ulardan sal naridagi ayolning oldiga borib oyog'iga suykalgandi, «pisht» deb quvib soldi.

– Qomi ochmikan, oyi, biror narsa beraylik.

Onasi mushukchaga achinib ketdi. Turishi xuddi olmaxonning o'zi. Haliyam qo'lini mahkam ushlab olgan o'g'lini bekatga – yondosh do'konga yetakladi. Ichkari iliqqina ekan. Onasi peshtaxtalarga bir qur ko'z tashlagan bo'ldida, barmog'i bilan chiroyli idishga ishora qildi:

– Mana bu konserva yaxshimi? Illoji bo'lsa, qopqog'ini ochib bering.

– Sotuvchi ayol bir onasiga, keyin Jamshidga hayron bo'lgandek qaradi. So'ng esa idishning qopqog'ini ochib uzatdi. Onasi yoqimli hid taratib turgan yegulikni o'g'liga uzatib, sotuvchi bilan hisob-kitob qildi. Tashqarida ayoz yanayam zabtiga olgandi. Jamshid qo'lidagini mushukchaga ko'rsatib, sal chetroq joyga qo'ydi. Boyagina duch kelgan odamga miyovlagan zoranayotgan mittivoy butun dunyoni unuti. Xuddi biron tortib oladiganday boshini ko'tarmay oldidagi xushbo'y ovqatni shoshgancha yuta boshladi.

Har zamonda momiq dumchasini likillatib qo'yardi...

Qor birdan to'xtab, osmon toqida nurlar jilva qildi. Sal o'tmay esa charaqlab turgan quyosh namoyon bo'ldi. Yaxshilik butun olamni qamrab olayotgandek edi.



«...Quyosh barcha fasllarning otasi ekan. Uning Qishjon, Bahoroy, Yozxon va Kuzjon degan to'rt farzandi navbatma-navbat fasllarni olib kelishar ekan. U fasllar almashishini adolat bilan kuzatib borarkan. Bahorda Quyoshjon mehri borliqqa ulasharkan. Atruf uyg'onib, maysalar sabza urar, qush-u jonzorlar ko'klamni chorlab sayrarkan. Yozda esa Quyoshning mehri yanada ortar ekan. Kuzda Yaproq'oy bilan Yomg'irjon



ORZULARI QANOT YOZMOQDA

kuzni olib kelarkan. Qishda esa oppoq qorlar yog'ib, barchani ko'nglini ravshan qilarkan. Fasllarning almashishini negadir qarg'a sira istamas ekan. Shu bois, u yozdan qish fasliga o'tib ketishini istab, soatni to'xtatib qo'yibdi. Kuz uxlab qolibdi. Yaproqlar xavotirlanib, kuzni uyg'ota boshlabdi. Ammo u uyg'onmas emish. Shunda bir yaproq kuzning yuziga shapaloqlab uni uyg'otibdi va darrov yomg'irlarni yog'dirib, kuz yuzini yuvibdi. Yaproqvoy Kuzga bo'lgan voqeani gapirib beribdi. Kuzjon Yaproqvoyni, «Rahmat senga, do'stim», debdi. Yaproqvoy «Hechqisi yo'q, Shapaloqvoy», debdi. Shu tariqa Kuzjonning laqabi «Shapaloqvoy» bo'libdi. Shapaloqvoy va Yaproqvoy qalin do'stga aylanibdi...

Bu kichik parcha «Yaproqvoy-Shapaloqvoy» ertagidan olingan bo'lib, u tengdoshingiz Iqbolxon Muhammadovning qalamiga mansub. Iqbolxon poytaxtimizdagi 73-umumta'lim maktabining 6-«A» sinfida o'qiydi. U yaqinda «Kamalak» yulduzlari festivalining shahar bosqichida 1-o'rinni egalladi. Diplom hamda «Robinson Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari», «Uch og'ayni botirlar» nomli o'zbek xalq ertaklari kitobi bilan taqdirlandi. Hozirda Xudoyberdi To'xtaboyev, Abdulla Qahhor, Anvar Obidjon, Tohir Malik kabi yozuvchilarning asarlarini sevib mutolaa qiladi. Shuningdek, uning turli mavzulardagi maqola, she'r, qatra va hikoyalari «Tong yulduzi» gazetasida chop etildi. Gazeta orqali o'tkazilgan «Boyligni bolalikdan asrang» tanlovida faxrli o'rindardan birini egalladi.

– Maqola, she'r, hikoyalarimizni dastavval kimga o'qib berasiz? – degan savolimizga Iqbolxon quyidagicha javob berdi:

– Texnika fanlari doktori, akademik Muborak Teshaboyeva mening buvijonim bo'ladi. Yozgan ijodiy ishlarimni, avvalo, shu kishiga o'qib beraman. So'ng, buvijonim bilan ustoz-jurnalist va yozuvchilar maslahatini olamiz. Jamila Haydarova, Dilfuza Komiljonova, Axtamquli kabi ustozlarimning maslahatlarini eshitishdan zavq olaman. Bo'sh vaqt topildi deguncha, oila a'zolarim bilan shaxmat musobaqasi uyushtiramiz. Shu bois, 118-umumta'lim maktabida Rustam aka Mamatqulov rahbarlik qilayotgan «Sehrlil shaxmat» to'garagiga qatnashaman. Bugunga qadar ko'plab musobaqalarda g'olib bo'ldim. Maktabda «Kamalak» sardoriman. Sinf rahbarimiz Dilorom Xolmatova bizni doimo inoq bo'lishga undaydi. Har birimiz darslarni diqqat bilan eshitamiz, topshiriqlarni birinchilardan bo'lib bajarishga harakat qilamiz. Ibratli o'quvchilar safida bo'lish uchun doimo intilamiz.

Iqbolxonning yutuqlari bardavom bo'lishini, ijodda katta yutuqlarni qo'lga kiritishini tilaymiz.

Nodira NAZAROVA



Sportga qiziqish sog'lom bo'lishga intilishdir.

G'ALABA NASHIDASI

Yangi yilning ilk kunlari o'zbek taekvando ustalari uchun omadli keldi. Malayziyaning Melaka shahrida o'tkazilgan yoshlar, o'smirlar va kattalar o'rtasidagi nufuzli musobaqada qit'aning 15 dan ortiq mamlakatidan kelgan mahoratli sportchilar qatorida terma jamoamiz a'zolari sovrindorlar safidan o'rin egalladi.



Jumladan, 5-7 yoshli sportchilar bahsida jajji atletimiz Dovudbek Abdug'ofurov barcha raqiblarini mag'lub etib, oltin medal bilan taqdirlandi. Ibrohim Nig'monov, Ibrohim Usmonov, Saidmurod Tohirxo'jayev kabi yosh taekvandochilarimiz ham o'zlarining yuksak iste'dodi bilan yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Yakunda ularning barchasi shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy egalladi. Shuningdek, yana bir nafar vakilimiz oltin, yana biri esa kumush medal egasiga aylandi.

Musobaqaga murabbiylarim bilan jiddiy tayyorgarlik ko'rdik, - deydi Ibrohim Nig'monov. - Tumirda o'zbekistonliklardan tashqari Janubiy Koreya, Yaponiya, Eron va Xitoydan kelgan tengdoshlarim ham munosib ishtirok etishdi. Biz ular bilan do'stlashdik, bir-birlarimizga tug'ilib o'sgan yurtimiz haqida qiziqarli ma'lumotlarni aytib berdik. Ushbu musobaqa tufayli sport - tinchlik elchisi ekaniga yana bir bor amin bo'ldim. Nasib bo'lsa, kelajakda jahon va Olimpiada chempioni bo'lmoqchiman.

Qit'a birinchiligi yakunlariga ko'ra, O'zbekiston yoshlar terma jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Biz yosh va umidli dayan ustalarimizga kelajakdagi musobaqalarda omad va zafarlar tilaymiz.

Sa'dullo TURSINOV



VATANIM SHARAFINI HIMOYA QILAMAN

Men «Tong yulduzi»ning ashaddiy muxlisiman. Gazetaning har bir sonini maroq bilan o'qib boraman. Tengdoshlarimning yutuqlarini ko'rsam, havasim ortadi. Shuning uchun o'zim erishgan yutuqlar haqida ham yozmoqchiman.

Bolaligimdan sportga qiziqaman. Karatening shotokan turi bilan muntazam shug'ullanaman. Mana, yetti yildirki, ustozim Alisher Qurbonovdan ushbu sportning sirlarini o'rganib kelmoqdaman. Yaqinda O'zbekiston chempionatida 2 ta oltin va 1 ta kumush medallarini qo'lga kiritib, O'zbekiston terma jamoasi a'zosi bo'ldim. Kelajakda ona Vatanim sharafini qit'a va jahon chempionatlari, Olimpiada o'yinlarida munosib himoya qilmoqchiman.

Maryamjon RAJABOVA,
Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi
20-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

CHAQQONLARGA TO'SIQ BO'LMAYDI

Poytaxtimizning Yunusobod tumanida joylashgan «Vatanparvar» tashkiloti tasarrufidagi Respublika texnik va amaliy sport turlari markazida respublikamiz oliy ta'lim muassasalari talabalar o'rtasida yo'l to'sigidan o'tish bo'yicha jamoalar va individual ishtirokchilar o'rtasida «Mega sport» musobaqasi o'tkazildi.

Tumir O'zbekiston yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti Markaziy Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi «Yaks future product»

MCHJ

hamkorligida tashkil etildi.

«Mega sport» musobaqasida 43 ta oliy ta'lim muassasalaridan 430 nafar talaba-sportchilar ishtirok etdi.

Mazkur musobaqa yakunlariga ko'ra, 1-o'rinni Toshkent viloyati, Chirchiq davlat



pedagogika instituti, 2-o'rinni O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti, 3-o'rinni Samarqand davlat universiteti jamoalari qo'lga kiritdi.

G'olib jamoalarga O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda homiy tashkilotlarning diplom, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

Shukrulla G'ULOMOV

TA'TIL MAROQLI KECHDI

Poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 1-bolalar va o'smirlar sport maktabida umumta'lim maktabi o'quvchilari qishki ta'tilini mazmunli tashkillashtirish maqsadida tumandagi «Yuksalish», «Yangi Qo'yliq» va «Tolariq» mahallalarida istiqomat qiluvchi 2007-2011-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida stol tennisi va shahka bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, stol tennisi bo'yicha 1-o'rinni «Yangi Qo'yliq» mahallasi vakili Shohrux Anvarov egalladi. 2-o'rin Daniil Bektemirovga, 3-o'rin esa tolarqlik Anvar Sharipovga nasib etdi.

Shahka bahslarida 1-o'rinni «Tolariq» mahallasidan Humoyun Qodirov, Abbas Narzullayev hamda Anvar Sharipovlar 2-va 3-o'rinlarni zabt etishdi.

Nina Yermakova, Bahrom Tursunov va Abdumalik Jumayevlar hakamligidagi mazkur musobaqa eng mohir

sportchilarni munosib rag'batlantirish barobarida yoshlar o'rtasida sportni



ommalashtirish, mahalla o'smirlarini do'stlashishga undashi, shubhasiz.

Muhammadsodiq ALIMOV

Ta'lim maskanimizda o'quvchilarning qishki ta'til kunlarini maroqli va mazmunli o'tkazish maqsadida barcha fan to'garaklari va qo'shimcha mashg'ulotlar, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. Jumladan, maktabning faollari zalida o'quvchilar, o'qituvchi va tarbiyachilar ishtirokida «Ommaviy kitobxonlik» mavzusida tadbir bo'lib o'tdi.

Kechada turli sahna ko'rinishlari ijro etildi, o'quvchilar kitob saltanatiga sayr qilishdi.

Yoshlarning buyuk alloma-

KITOBGA MEHR BERDIK



larimiz aytgan hikmatli so'zlardan nechog'li xabardor ekanliklari sinovdan o'tkazildi. O'zligimizni tarannum etuvchi she'rlar yod olindi, kuy-qo'shiqlar hamda milliy raqslar namoyish etildi. Yoshlarimiz aqidaparastlik, ma'naviyatimizga yot g'oyalari ta'siriga tushib qolmasliklari uchun ilmga, kitobga oshno bo'lish kerakligi ta'kidlandi. Zero, ilm orqali har bir voqea-hodisaning ma'no-mohiyatini anglash mumkin.

Shuningdek, 5-«A» sinf o'quvchisi

Malohat Otaxonovaning «Oltinsoy ohanglari» nomli kitobining taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Maktab rahbari Alimardon Jumayev yosh ijodkor o'quvchimizdan o'rnak olish kerakligini alohida ta'kidladilar. Malohat o'z she'rlaridan o'qib berganida, tengdoshlari unga havas bilan boqishdi.

Mashrab ANOROV,
Surxondaryo viloyati,
Denov tumanidagi 17-DIUMI yetakchisi



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

SO'ZLAR O'YINI

Ushbu mashqni hal etish uchun kataklarning o'ng tomonidagi oq rangda yozilgan harflarni qoraytirilgan xonalarga namunadagidek yozish bilan beshta harfli so'zlar hosil qiling. So'ng, o'ng va chap tomonlarda hosil bo'lgan so'zlar o'rtasidagi oq katakka zarur harfni yozish bilan yangi so'zlar hosil qiling. Mashqni to'g'ri hal eta olsangiz, oq kataklarda uddaburonlik, yetakchilikni anglatuvchi so'z ayon bo'ladi.

X	A	M				S	O	N		N	S	I	A	
H	A	S	H			L	A	K		A	F	R	A	
S	H	A	S	H		N	O	B		K	T	A	A	
N	I	H				M	A	N		L	C	H	O	A
D	A	M				K	A	S	H	O	A	S	B	
T	A	N				Z	A	L		B	A	A	S	
K	I	T				F	A	S		N	B	O	A	
X	A	N				R	I	X		A	D	A	T	
D	A	M	K	A		K	U	R	K	A	A	K	U	K
M	A	S				D	A	M		A	Q	L	A	
L	A	L				A	K	I		O	I	B	M	
T	A	N				P	A	R		L	I	A	T	
X	A	B				M	O	N		Z	A	R	A	
C	H	O	R			F	O	R		L	V	I	A	

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

15-yanvar 2018

TEZ AYTISHLAR

Olimjonning og'aynisi Odiljon,
Odiljonning og'asi Oqiljon.

Azamat Abdullani
ayab ayblamadi.



Ravshan ISOQOV

SHOKOLADLI

KULCHA

Pazanda qizgal!



Kerakli masalliqlar: 1 piyola sut, 2 oshqoshiq asal, 100 gramm shakar, 50 gramm margarin, 3 oshqoshiq kakao, 2 choyqoshiq iste'mol sodasi, 1 dona tuxum va 400 gramm un.

Kremiga: 1 dona tuxum, 2 oshqoshiq un, 100 gramm shakar, 300 grammdan sariyog' va sut.

Tayyorlanishi: un va tuxumdan tashqari barcha masalliqlarni tog'orachaga solib aralashiriladi va o'rta olovda suv bug'ida 10 daqiqa davomida qaynatiladi. Keyin olovdan olib, biroz sovutib, tuxum va un qo'shib, yumshoq xamir qoriladi. Xamir 7 zuvalaga bo'linadi. Har bir zuvalani o'rtacha kattalikda yoyib, 180 darajada qizdirilgan gaz pechida 8-9 daqiqa davomida pishiriladi. Qolganlari ham shu tarzda pishirib olinadi.

Alohida idishda sut, tuxum, shakar va un qo'shib aralashiriladi va suv bug'ida quyuqlashguncha qaynatiladi. Tagi olmasligi uchun kremni muntazam kavlab turish lozim. Quyuq ko'rinishga kelgach biroz sovutilib, sariyog'ga bir oshqoshiqdan solib mikser yordamida ko'pirtiriladi. Pishgan kulchalar orasiga kremdan quyuq qilib surtib, birin-ketin yopishtiriladi. Ustiga eritilgan shokoladi va kokos qirindisi sepiladi.

Yoqimli ishtaha!



Nargiza
ABDULLAYEVA

